

DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI BARTARF ETISH MECHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Orazbayev Alibek Muxtor o'g'li

BuxDU “Tarix va madaniy meros” fakulteti 5-5 MG'H-20 talabasi

Ilmiy rahbari: Omarova Gavhar Sadikovna.

*“Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi”**

Annotatsiya: Hayotda albatta, har birimiz ertami-kechmi nohaqlikka, adolatsizlikka to'qnash kelishimiz ehtimoldan xoli emas. Aytaylik, puxta bilimga ega o'quvchining institutga kirolmasligi yoki sudyaning pora evaziga gunohkorni oqlab, begunohni qoralashi kabi nohaqliklari bedodliklar hayotda juda uchraydigan hodisalardir hisoblanadi. Ushbu maqolani yozishimdan maqsad korrupsiya tushunchasi, mazkur tizimdagi jinoyatlarning ob'yektiv va sub'yektiv belgilari, xalqaro miqyosdagi huquqiy hujjatlardagi korrupsiyaviy normalarning standartlari hamda mazkur turdagi jinoyatlarga oid xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada korrupsiyaviy jinoyatlarga oid amaldagi milliy qonunchilik muammolari va ularni takomillashtirish masalalari ko'rsatilgan. Bundan tashqari mazkur maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar, xorijiy davlatlardagi korrupsiyaviy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish istiqbollari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruv organlari, korrupsiya, komplaens-nazorat, mansabdor shaxs, davlat ishtirokidagi tashkilot, jinoyatlar haqidagi ma'lumotlar bazasi.

Hammamizga ma'lumki, ijtimoiy boshqaruvning asosiy turlaridan biri bu davlat boshqaruvi sanaladi. Davlat boshqaruvi faoliyati davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshirirladi. Davlat boshqaruv organlari faoliyatining mazmuni istiqbolni belgilash, rejalashtirish, moliyaviy ta'minlash, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, hisobga olish va nazorat qilishdan iborat.

* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlagani.

Davlat boshqaruv organlari – qonun bilan belgilangan tartibda tashkil topgan va uning funksiyalari hamda vazifalarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan vakolat berilgan, bu maqsadda davlat-hokimiyat vakolati bilan ta’minlangan va belgilangan tartibda ish ko’ruvchi fuqarolar guruhidir.

Davlat boshqaruvini tashkil etish tartibi va boshqaruvni amalga oshirishda.

1. Belgilab qo’yilsinki, vazirliklar, davlat qo’mitalari, qo’mitalar, agentliklar, shuningdek ular huzurida va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika davlat boshqaruvi organlari jumlasiga kiradi.

2. Respublika davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat deb hisoblansin:

– O’zbekiston Respublikasi qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar amalda ro’yobga chiqarilishini, ularning ijrosi ustidan ta’sirchan nazorat amalga oshirilishini ta’minlash;

– tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta’minlash;

– mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishni tashkil qilish, iqtisodiy islohotlarni ro’yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, aholining ta’lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta’minotga bo’lgan huquqlarini ta’minlash va himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy sohada umumdavlat boshqaruv tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish;

– tegishli huquqiy muhitni yaratish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish orqali xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;

– soliqlar, bojxona to’lovlarini yig’ish, davlat daromadlarini taqsimlash yo’li bilan xazinaga oid vazifalarni amalga oshirish; asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat edi. Bu vazifalarni amalga oshirish jaryonida mansabdor shaxslar o’z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonundan xilof ravishda foydalanishi xolatlari yo’q emas, shunday xolatlarnig oldin olish, uni bartarf uchun mamlakatimizda keng miqyosda kurash olib borilmoqda. Shu o’rinda korrupsiya tushinchasiga va uning tarixiy ildizga to’xtalib o’tadishimiz kerak.

Korrupsiya (lot. *Corrumpere* – *buzmoq*) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi.

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazishi bilan birgalikda, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi, uyushgan jinoyatchilik, huquqbuzarlik, qonunlarni mensimaslik, mansabdor shaxslar o'z mansablarning sui'istemol qilinishi va boshqa achinarli hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator chora tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti. Biz ayni damda korrupsiyaning tarixiy ildizlari va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor miloddan avvalgi XXIV asrda Mesopotamiyaning Lagash degan shahar-davlatida boshlangan, lekin afsuski, barcha sa'y-harakatlar zoya ketgan. Keyingi zamonlarda ham korrupsiyaga qarshi qanchadan-qancha kurashlar yuz berdi, lekin ular besamar yakun topgan. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel ta'kidlaganidek: "Hokimiyatga pul bilan erishgan odam undan daromad olishga intiladi degan." Korrupsiya – nihoyatda ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch, uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchi yo'qoladi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, jamiyatda ma'naviyat izdan chiqib boshlaydi.

Bejizga ilohiy kitoblar sanalmish "Injil" va "Qur'oni karim"da ham o'zgalar mol-mulkini nohaq o'zlashtirmaslik yoki qozilarga pora berish

evaziga boshqalar mol-mulkini egallab olmaslik xususida oyatlar nozil bo'lmagan.

“Mol va (boylik)laringizni o'rtalaringizda botil (yo'llar) bilan yemangiz! Shuningdek, bila turib odamlarning haqlaridan bir qismini gunoh yo'li bilan yeyish (o'zlashtirish) maqsadida uni hokimlarga havola etmangiz!

XVIII asr oxiridan boshlab g'arb davlatlarida jamiyatning korrupsiyaga munosabatida keskin burilish yuz berdi. Davlat hokimiyati unga tobe odamlar farovonligi uchun xizmat qilishi kerak, fuqarolar amaldorlar qonunlarga rioya qilgan holda ishlashi uchun ularni boqadi, degan shior ostida liberal islohotlar o'tkazilgan. Jumladan, 1787 yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida pora olish AQSH Prezidentini impechmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib bir mamlakatdagi korrupsiya boshqa mamlakatlar rivojiga ham salbiy ta'sir etishi oydinlashdi. Bu o'sha davrda xalqaro miqyosda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro miqyosda qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash va davlat xizmati sifatini ko'tarish va davlat xizmatchilarining fuqarolar oldida mas'uliyatini oshirish va axloqiy jihatdan ko'tarishga qaratilgan xalqaro hujjatlarga qo'shilish, ularga amal qilish har qanday davlat uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda Birlashgan Millatlar Tashkiloti korrupsiya mamlakatlarning milliy taraqqiyoti va barqarorligiga jiddiy xavf solishi mumkinligini hisobga olib va uning nafaqat milliy balki xalqaro hamjamiyatni tobora xavotirga solib borayotgan xalqaro illat deb e'tirof etuvchi qator hujjatlarni qabul qilgan. Undan tashqari BMT doirasida Global korrupsiyaga qarshi kurash dasturi e'lon qilingan. Ushbu dastur milliy korrupsiyaga qarshi kurash dasturlarini amalga oshirishga yordam berish va mamlakatlarda korrupsiya nisbatan murasasizlik muhitin yartish, davlat xizmatchilarida sotilmaslik psixologiyasini shakllantirish, qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan. Dasturda davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar sotib olishda va xalqaro iqtisodiy bitimlarda ochiqlik va hisobdorlik bo'lishiga katta e'tibor berilgan. 1990 yilda BMT maxsus “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiya” deb nomlangan rezolyutsiyasini qabul qilgan. 1996 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurash” rezolyutsiyasida davlatlarni korrupsiyaning xalqaro aloqalarga bog'liq bo'lgan jihatlariga, ayniqsa korporativ tashkilotlarning xalqaro iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ro'y beradigan noqonuniy bitimlarni jiddiy o'rganib ko'rishga chaqirgan. Bu to'g'risida BMTning “Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risida”gi Deklaratsiyasi ham mavjud. BMT doirasida qabul qilingan 1996 yildagi rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan Davlat mansabdor shaxslari axloqining

xalqaro kodeksida davlat mansbdor shaxslari faoliyatining prinsiplari belgilab berilgan edi. BMTning yuqorida qayd etilgan hujjatlarida korrupsiyaning xalqaro xarakteri va unga qarshi kurashning vositalari va metodlari haqida tavsiyaviy qoidalar o‘z aksini topgan. BMT tomonidan 2000-yilda qabul qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash Konvensiyasida korrupsiyaning transmilliy xarakterdagi jinoyat ekanligi va unga qarshi kurashda Konvensiyaga qo‘shilgan mamlakatlarning majburiyatlari va korrupsiyaga qarshi kurashning keng qamrovli choralari o‘z aksini topgan.

BMT tomonidan ham tan olinib, 2003 yil 9 dekabrda Meksikaning Merida shahrida korrupsiyaga qarshi kurashishda davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida 3 kun davom etgan konferensiya tashkil etildi. Bu konferensiya davomida 100 dan ortiq davlat tomonidan Korrupsiyaga qarshi haqaro konvensiya imzolandi. Konferensiyaning birinchi ish kuni (9 dekabr) BMT tomonidan butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash kuni deb e‘lon qilingan. Ushbu konvensiyaning qabul qilinishi va kuchga kirish (2003 yil 31 oktyabr) dunyo mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi hamkorligini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Konvensiyada korrupsiyaning rivojlanishi uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa jamiyat uchun xavfli bo‘lgan salbiy omillarga qarshi kurashga ulkan to‘siq bo‘lishi mumkinligiga alohida urg‘u berilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi muhim o‘rin tutadi.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta‘minlovchi muhim vositalardan biri o‘z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish Komplaens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi va bu tizimni bizning mamlakatimizdagi ijtimoiy soha tizimlarda ham joriy etish, korrupsiyaning oldini oilish, unga qarshi samarali yechim topish kabi muamolarni hal qilish ucun ham foydalaniladi.

Bu o‘rinda Prezidentning 2020 yil 29 iyundagi **«O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-6013-sonli Farmonga** asosan yangi tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining asosiy vazifalaridan biri etib 2020–2021-yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu

jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

Endi korrupsiyaga qarshi “Komplaens nazorat” tizimi nima degan savolga javob beramiz?

“Komplaens”, “komplaens-nazorat” (compliance control) tushunchalari – rozilik, muvofiqlik, va aniq belgilangan qoida, standart hamda ko‘rsatmalarga muvofiq faoliyat yuritish degan ma’nolarni anglatadi.

Komplaens nazorat tizimi ilk bor AQShda 1906 yilda vujudga keldi. Bunga zaruriyat mamlakat iqtisodiyotida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan kompaniya va korporatsiyalarning tashkil etilishi bilan bog‘liqdir.

Komplaens nazorat tizimini joriy etish bo‘yicha samarali tajribaga ega mamlakatlarning amaliyotiga muvofiq ushbu xizmat eng keng tarqalgan quyidagi ikkita modeli qo‘llaniladi:

1. Kompaniya va tashkilot faoliyatini faqatgina mavjud o‘rnatilgan ichki qonun va qoidalarga muvofiq tashkil etishga qaratiladi. Bunda komplaens xizmatini joriy etilishi minimal qoidalar bilan cheklanadi.

2. Komplaens nazorat tizimining tashkil etilishi korrupsiya xavflarni baholashda xalqaro tashkilotlarning (Bazel bank qo‘mitasining tavsiyalari, Xalqaro komplaens assotsiatsiyasi) tavsiyalariga asoslanadi va bu modelda komplaens xizmatning maqomi, vazifasi, faoliyat doirasi asosan xalqaro standart va tavsiyalarga asoslanadi.

Mazkur tajriba samaradorligi bilan ajralib turadi va asosan yirik iqtisodiy salohiyatga ega AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar amaliyotiga to‘g‘ri keladi. Ta’kidlash joizki, xalqaro miqyosda keng qo‘llanilib kelinayotgan komplaens nazorat tizimining korrupsiya xavflarini oldini olishda samaradorligi va ta’sirchan jihatlaridan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, shuningdek, Toshkent shahar hokimligi, Toshkent viloyati hokimligi, Mirzo Ulug‘bek tumani va Bo‘ka tumani hokimliklari kabi davlat tashkilotlarida loyihani tajriba tariqasida joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Bu o‘rinda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratildan tashviqot tadbirlari, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rildi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqqligini, boshqaruvi tizimini rivojlantirish, davlat apparatining ishini yaxshilash, boshqaruv faoliyatining samaradorligini, faoliyatining

ochiqligi, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi. Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2019-yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning pora olishi bilan bog'liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, 2019 yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiya bilan bog'liq 590 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi, korrupsiyaga qo'l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxona va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining asosan tibbiyot, ta'lim, davlat xizmati ko'rsatish, xususan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga litsenziya va ruhsat berish bilan bog'liq sohalardahali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-419-sonli.
2. O'zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida” O'RQ-369-son 05.05.2014 yildagi.
3. “Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida” PF-3358-son 09.12.2003 yildagi.
4. Sh.A.Saydullaev. Davlat va huquq nazariyasi. – T.:“Yuridik adabiyotlar publish” 2020.
5. A.Burxanov, T.Haydarov, Z.Qodirov, S.Mamanov. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimning joriy etish bo'yicha qo'llanma. – T.: 2021.
6. Qur'oni Karim. Ma'nolar tarjimasi. Toshkent, 2013.
7. <https://lex.uz/>
8. <https://constitution.uz/>
9. <https://ombudsman.uz/>
10. <https://anticorruption.uz/>